
FARG'ONA SHAHRIDA YOSH TADBIRKORLARGA SERTIFIKATLAR TOPSHIRILDI



Tadbirkorlar uyida "Yoshlar daftari"ga kiritilgan 17 nafar "Tadbirkorlik va biznes asoslari" bo'yicha tashkil etilgan qisqa muddatli kurslarni tamomlagan yoshlarga shahar hokimi o'rinbosari A.Abdullayev, "Yoshlar ishlari agentligi" shahar bo'limi rahbari A.Abdug'aniyev, Savdo-sanaot palatasi shahar bo'limi rahbari I.Mamatxanova ishtirokida sertifikatlar topshirildi.

Yosh tadbirkorlar mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklar va biznes yuritish ko'nikmalari bo'yicha o'qitildi. Davlat soliq boshqarmasi mutaxassislari tomonidan turli mavzularda seminarlar, muvaffaqiyatga erishgan tadbirkorlar tomonidan mahorat darslari o'tkazildi.

Seminar-trening yakunida shahar hokimi o'rinbosari A.Abdullayev, "Yoshlar ishlari agentligi" shahar bo'limi rahbari A.Abdug'aniyev yosh tadbirkorlarga kelgusi hayoti, o'qish va izlanishlarida omad va muvaffaqiyat tilashdi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#)

2021-04-28 12:19:49